



O‘QUVCHI-YOSHLAR MAFKURAVIIY IMMUNITETINI SHAKLLANISHIDA
IJTIMOIIY FANLARNI O‘RNI (“Tarbiya” fani misolida)

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.123>

Yusubov Jamshid

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, DSc,

Sarvinoz Risaliyeva,

O‘zbekiston Milliy universiteti

Milliy g‘oya, manaviyat asoslari va huquq ta‘limi

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy fanlarning o‘rni, xususan, “Tarbiya” fani misolida yoshlar ongida milliy qadriyatlarga sodiqlik va fuqarolik mas‘uliyatini shakllantirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, globallashtirish sharoitida yuzaga kelayotgan g‘oyaviy tahdidlarga qarshi barqaror dunyoqarashni shakllantirishda ta‘lim-tarbiya jarayonining ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Mafkuraviy immunitet, ijtimoiy fanlar, yoshlar tarbiyasi, tanqidiy fikrlash, milliy qadriyatlar, g‘oyaviy tahdid, fuqarolik mas‘uliyati.

Abstract. This article examines the role of social sciences in the formation of ideological immunity of youth, in particular, the mechanisms for forming loyalty to national values and civic responsibility in the minds of young people using the example of the discipline of "Education". It also reveals the importance of the educational process in forming a stable worldview against ideological threats emerging in the context of globalization.

Keywords: Ideological immunity, social sciences, youth education, critical thinking, national values, ideological threat, civic responsibility.

Аннотация. В данной статье на примере дисциплины «Образование» рассматривается роль социальных наук в формировании идеологического иммунитета молодежи, в частности, механизмы формирования лояльности к национальным ценностям и гражданской ответственности в сознании молодых людей. Также раскрывается важность образовательного процесса в формировании устойчивого мировоззрения перед лицом идеологических угроз, возникающих в контексте глобализации.

Ключевые слова: Идеологический иммунитет, социальные науки, образование молодежи, критическое мышление, национальные ценности, идеологическая угроза, гражданская ответственность.

Introduction (Kirish). Zamonaviy globallashtirish va axborotlashuv jarayonlari yosh avlod ongiga turli g‘oyaviy ta‘silning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda o‘quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish dolzarb pedagogik va ijtimoiy vazifaga aylanmoqda. Mafkuraviy immunitet – bu shaxsning turli buzg‘unchi, yot va zararli g‘oyalarga nisbatan tanqidiy yondasha olish, mustaqil fikr yurita olish va milliy qadriyatlarga sodiq qolish qobiliyatidir.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy-gumanitar fanlarning rolini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta‘lim sohasida keng ko‘lamli modernizatsiya jarayonlari boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni⁹⁴ hamda Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi⁹⁵ ta‘lim mazmunini zamon talablariga moslashtirishni nazarda tutadi.

Mazkur jarayonda ijtimoiy fanlar, ayniqsa “Tarbiya” fani o‘quvchilarda ma‘naviy barqarorlikni shakllantirishning muhim vositasiga aylandi.

Ijtimoiy gumanitar fanlarning so‘nggi chorak asr davomida o‘zining funktsional vazifasini bajarishda yuzaga kelgan muammolar sifatida ta‘limning bir tomonlama rivojlanishi, oliy ta‘limning o‘zini optimallashtirishdagi muammolar, davlat siyosatining yopiqligi kabi to‘siqlar bo‘lganligini keltirishimiz mumkin. Lekin chuqurroq tahlil qilinsa, oliy ta‘limda mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlarning optimallashtirilishini muammoning yechimi deb bo‘lmaydi. Chunki ta‘lim yo‘nalishlarining mutaxassislik fanlarini ham zamon talablariga muvofiq takomillashtirish lozim. Buning uchun ta‘limning barcha bosqichlarida ijtimoiy gumanitar fanlar bilan integratsiyalashgan media ta‘limni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasida bu sohadagi izlanishlar o‘tgan asrning 60-70-yillaridayoq boshlandi va fanda o‘ziga xos yo‘nalish — mediata‘lim paydo bo‘ldi. Yangi yo‘nalish o‘quvchilar va talabalarga mediamadaniyat dunyosiga moslashishga, ommaviy axborot vositalari tilini o‘zlashtirishga, mediamatnlarni tahlil qila olishga yordam berishi ko‘zda tutilgan.

Yoshlarning bilim darajasini oshirish g‘oyaviy tarbiyaning ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlaydi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi⁹⁶, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun bilim va malakasini oshirishga qaratilgan tarixiy hujjatlardir. Ular har bir yoshning bilim darajasini oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. G‘oyaviy sog‘lomlik har qanday buzg‘unchi

⁹⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 sentyabr “Ta‘lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni. <https://lex.uz/en/docs/5013007>

⁹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. <http://lex.uz/docs/4545884>

⁹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. <http://lex.uz/docs/4545884>

fikrlarga munosib javob berishni, yot va zararli g‘oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni, turli aqidaparastlar bilan asosli va tanqidiy munozara olib borishni, o‘z nuqtai nazarining to‘g‘riligiga ishonch-e‘tiqod tuyg‘usini kamol toptirishni taqozo etadi.

Methods (Metodologiya). Tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;
- tizimli va qiyosiy yondashuv;
- pedagogik kuzatuv va konseptual umumlashtirish;
- ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Tahlil jarayonida Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari hamda ta‘limga oid konsepsiyalar asosiy manba sifatida o‘rganildi. Bugungi kunda oliy ta‘lim tizimini zamonaviylashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning ekspertlari guruhi tomonidan turli tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga taklif qilingan. Mazkur tavsiyalarni hisobga olish oliy ma‘lumotli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish orqali respublika oliy ta‘lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda tubdan takomillashtirish, oliy ta‘lim tizimida o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta‘lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarini joriy qilish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta‘lim muassasalarida stajirovkadan o‘tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlarni yuqori darajaga yetkazishga xizmat qiladi.

Mazkur vazifani amalga oshirish orqali oliy ta‘lim tizimini zamonaviy isloh qilish va samaradorligini yanada oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 aprelda PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. So‘nggi bir yilda O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ilm-fanni rivojlantirish, o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida oliy ta‘limda mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlarni ikki baravrga qisqartirish taklifining berilganligi, ta‘limning kredit-modul

tizimiga o‘tilayotganligi oliy ta‘limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni optimallashtirishda soha mas‘ullari oldiga kechiktirib bo‘lmas ishlarni amalga oshirish vazifasini qo‘ymoqda.

Results (Natijalar): Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

- tarixiy tafakkur va milliy o‘zlikni anglash;
- tanqidiy fikrlash va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish;
- huquqiy ong va fuqarolik mas‘uliyati;
- axborot madaniyati va media savodxonlik.

Vazirlar Mahkamasining qarori⁹⁷ asosida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Tarbiya” fanining bosqichma-bosqich joriy etilishi yoshlar mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu qarorga muvofiq “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlari integratsiyalashgan holda yagona “Tarbiya” faniga birlashtirildi.

Mazkur fan konsepsiyasi o‘quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqildi. Darslik va o‘quv-metodik majmualar yaratildi, pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Shuningdek, 2017–2018 yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari (PQ–2909, PQ–3151, PQ–3775)⁴ oliy ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy fanlar mazmunini takomillashtirishga xizmat qildi. Oliy ta‘lim tizimining samaradorligini oshirish mazkur me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ta‘minlanishi bevosita oliy ta‘lim ishtirokchilari bo‘lgan professor-o‘qituvchilar va talabalarga bog‘liq bo‘ladi. Professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga turli fanlardan saboq beriladi. Shunday fanlar qatoriga ijtimoiy-gumanitar fanlarni kiritish mumkin. Chunki, oliy ta‘lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishga barcha talabalarni keng jalb qilish bugungi kunda ma‘naviy tahdidlarga qarshi kurashish omili bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur fanlar orqali talabalarga jamiyatga xos bo‘lgan muammolar va ularni hal qilish yo‘llari, tarix, madaniyat, iqtisodiyot sohasiga oid yetarli bilimlarga ega bo‘ladilar va olgan bilimlari yanada mustahkamlanadi. Chunki, ijtimoiy fanlar jamiyat va odam hulqi bilan bog‘liq fanlar majmuasi bo‘lib, ularning qatoriga falsafa, ma‘naviyat asoslari, [iqtisodiyot](#), [tilshunoslik](#), odobnoma, [siyosatshunoslik](#), vatan tuyg‘usi, [sotsiologiya](#), [tarix](#), [huquqshunoslik](#), [psixologiya](#), [madaniyatshunoslik](#) va tarbiya kabi fanlar kiritiladi.

Discussion (Muhokama). Mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. U quyidagi omillar bilan mustahkamlanadi:

- oila va maktab hamkorligi;

⁹⁷O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son; “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2017-yil 27-iyul, PQ-3151-son; “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 5-iyun, PQ-3775-son. www.lex.uz

- tarixiy xotirani mustahkamlash;
- media savodxonlikni rivojlantirish;
- shaxsiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish.

2021-yil 19-yanvardagi yig‘ilishda Prezidentimiz tomonidan tarix fanini milliy ruh asosida rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlandi⁹⁸. Bu esa ijtimoiy fanlarning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

“Tarbiya” fanining joriy etilishi yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Demak, ijtimoiy fanlar, xususan “Tarbiya” fani o‘quvchi-yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda tizimli pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari belgilab berildi. Unga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqloq g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1-9-sinflarda — 2020-2021 o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda esa — 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilandi⁹⁹.

Mazkur hujjat bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning yaratilishini muvofiqlashtiruvchi guruh tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq; umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha tuzuvchilar guruhi tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq; umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlandi.

“Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni nashrga tayyorlash va chop etish (darsliklarni nashrga tayyorlash, chop etish va yetkazib berish, tuzuvchilarga haq to‘lash) bilan bog‘liq xarajatlar darslik va o‘quv-metodik majmualarning umumiy narxiga kiritildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi-yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirish bugungi globallashuv, axborot oqimlari keskin kuchaygan va g‘oyaviy qarama-

⁹⁸ Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. 2021-yil 19-yanvar. www.president.uz

⁹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori. www.lex.uz

qarshiliklar murakkablashgan davrda dolzarb pedagogik hamda ijtimoiy vazifalardan biridir. Jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyoti, avvalo, ongli, mustaqil fikrlaydigan, milliy qadriyatlarga sodiq hamda turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan mustahkam pozitsiyaga ega yoshlar kamolotiga bog‘liqdir. Shu bois mafkuraviy immunitet masalasi ta‘lim-tarbiya tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ijtimoiy fanlar, xususan, “Tarbiya” fani bu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Chunki mazkur fan o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki dunyoqarashi, e‘tiqodi, fuqarolik pozitsiyasi va hayotiy qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. “Tarbiya” fani orqali yoshlar ongiga vatanparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, qonunlarga hurmat, bag‘rikenglik va ijtimoiy mas‘uliyat kabi tushunchalar izchil singdiriladi. Bu esa o‘z navbatida ularning mafkuraviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, o‘quvchi-yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, “Tarbiya” fani shaxs kamolotining ma‘naviy, axloqiy va fuqarolik asoslarini yaratadi. Mazkur fan mazmunini yanada boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, o‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirish orqali mafkuraviy barqaror va ijtimoiy faol avlodni voyaga yetkazish mumkin.

Kelajak poydevori bugungi ta‘lim va tarbiya jarayonida yaratiladi. Shuning uchun ham ijtimoiy fanlarni, xususan, “Tarbiya” fanini takomillashtirish – jamiyatning barqaror rivojlanishi va ma‘naviy yuksalishining muhim sharti hisoblanadi. Mafkuraviy immunitetga ega, mustaqil fikrlaydigan va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi kuchli yoshlar esa Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng ishonchli kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 24 sentyabr “Ta‘lim to‘g‘risida”gi 637-son Qonuni. <https://lex.uz/en/docs/5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. <http://lex.uz/docs/4545884>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. <http://lex.uz/docs/4545884>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2017-yil 20-aprel, PQ–2909-son; “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2017-yil 27-iyul, PQ–3151-son; “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2018-yil 5-iyun, PQ–3775-son. www.lex.uz

5. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. 2021-yil 19-yanvar. www.president.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori. www.lex.uz